

# O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi

Rayxona Tuxtasinovna Tillayeva  
Marjona Muxtorali qizi Mo'minova  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni axborotlar bilan ishlashda raqobat muhitini yaratmoqda. Bu borada o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada aynan o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish, ularda mutolaa madaniyatini yuksaltirish, axborot bilan ishlashning ijobiy tomonlari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, adabiy-tanqidiy material, axborotlashgan jamiyat, an'anaviy ta'lim, metodika, axborot, didaktika, rivojlantirivchi metodika

## The method of using literary and critical materials in the formation of students' competences in working with information

Raykhana Tukhtasinovna Tillayeva  
Marjona Mukhtarali kizi Muminova  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** The process of globalization in the world is creating a competitive environment in working with information. In this regard, it is gaining importance in the formation of competences for working with information in students. This article talks about the formation of competences for working with information in students, raising the culture of reading in them, and the positive aspects of working with information.

**Keywords:** competence, literary and critical material, information society, traditional education, methodology, information, didactics, developmental methodology

Jahon ta'lim tizimida turli fan sohalari bo'yicha mustaqil izlanishlar olib borish, pedagog kadrlarning fasilatator, kouch, supervizor pozitsiyalarini egallashi, yoshlarni

yangiliklar yaratishga yo‘naltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda belgilangan “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish”<sup>1</sup> konsepsiyasida tadqiqotchilik faoliyatiga taraqqiyotning muhim belgisi sifatida qaralib, uning tashabbuskor, kreativ va yuqori intellektli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili ekanligi e’tirof etilmoqda. Bu esa o‘quvchilarda insonga va atrof-olamga nisbatan ijodiy munosabatni shakllantirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zaruratini yuzaga kelmoqda.

Dunyoda o‘quv-tarbiya jarayoni sifat-samaradorligini oshirishga qaratilgan optimal yondashuvlar yetakchi o‘rinni egallamoqda. Muayyan o‘quv materiali doirasida muammoli vaziyatlar hosil qilish, real (hayotiy) masalalarga e’tibor qaratish, shaxs bilish jarayonlarini rivojlantirish bo‘yicha turli xil refleksiya shakllaridan unumli foydalanish, ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga stimuly berish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur tadqiqotlar adabiy ta’lim mazmunini o‘quvchilarning yaratuvchanlik va bunyodkorlik g‘oyalariga motivatsiya beruvchi integrativ, evristik, kreativ va kognitiv yo‘nalishdagi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy ishlarni olib borishda muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning individual perspektivasini yaratish, o‘z “men”ligi va ijodiy barkamolligini pozitiv kamol toptirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, bu yoshlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir ergonomik shart-sharoitlarga ehtiyoj uyg‘otmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar o‘quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga doir ilmiy va ijodiy metodlarni adabiy ta’lim jarayoniga tatbiq etish, loyiha va tajribalarga jalb etish, izlanish faoliyatiga yangicha yondashish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu o‘rinda o‘tmish ajdodlarimiz tomonidan tadqiqot ishi, tadqiqotchilik yondashuvi, uning boshqa bilish jarayonlaridan farqli belgilari, insonga xos yaratuvchanlik sifatleri va ularni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar borasidagi qarashlariga to‘xtalish joiz. Zero, insonning tadqiqotchilik qobiliyati azaldan, ya’ni uning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari anglanishi zamirida paydo bo‘lgan.

<sup>1</sup> Inncheon declaration / Education 2030. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22-may, 2015 y. Incheon, Republic of Korea).

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини yanada rivojlantirish b‘yicha Harakatlar strategiyasi t‘g‘risida”ги РФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

Mazkur yondashuvning keng yoyilishiga donishmand Suqrotning ta'siri kattaligi fanda yaxshi ma'lum. Uning ta'limotida yangi bilimlar faqat ilm-hunar va jiddiy mehnat natijasida egallishi ta'kidlanadi. Albatta, inson mana shu sifatlari tufayligina go'zal axloqqa - kamolotga erishadi. Kashfiyotlarga qo'l uradi. Suqrotona o'qitishning samarasi bilimlarni tayyor holda emas, balki mavzuga oid muammolar bo'yicha o'quv tadqiqotlarini olib borish orqali o'zlashtirilishida ko'rinadi. Faylasuf ta'limoti asrlar davomida savol-javob usuli vositasida masalaga mantiqan yondashish, nutqning ravonligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Albatta, bunda muammo mazmuni bola motivlariga muvofiqlashtirilishi, faoliyatga olib kirishda rag'batlantirish usulidan foydalanilishi, noto'g'ri fikrlarning belgilab borilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi va xatolarini tuzatishga yo'l-yo'riq ko'rsatilishi shartlari mavjud.

Yana bir mutafakkir ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilish metodlari haqidagi ta'limotida tahlilga tortilayotgan muammo doirasidagi qarashlarning mavjudligi ham ahamiyatlidir. O'zidan avval yashab o'tgan Ahmad Farg'oniy va Muhammad Xorazmiylar ta'limotini boyitib takomillashtirgan allomaning kuzatishlarida tajribalar o'tkazish, ma'lumotlar to'plash, ular asosida umumlashmalar qilish, haqiqatni aniqlash maqsadida muammoni tanqidiy o'rganish va taqqoslash masalasi yoritiladi. Olimning fikricha, "...bilimga yetkazuvchi vositalardan eng muhimi - qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o'tmish avlodlar to'g'risidagi xabarlarni o'rganishdir, chunki bularning ko'pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasmi rusum qoidalaridan iboratdir. Aqliy dalil keltirish, kuzatilganga qiyos qilish yo'li bilan u xabarlarni bilib bo'lmaydi. Buni faqat "kitob ahli" va turli din arboblari, shu e'tiqodlilarning har xil maslak, tushunchalarini hamisha taqqoslash bilan bilinadi"<sup>3</sup>.

Bizningcha, yuqoridagi fikrlardan bilim shunchaki emas, balki turli xil qarashlarni o'rganish, ularning mohiyatiga kirish va shundan so'ng qiyoslash, qisqacha aytganda, chuqur tadqiq etish evaziga o'zlashtiriladi, degan xulosa shakllanadi.

Fan va texnika jadallik bilan rivojlanayotgan, axborot oqimlari kengayib borayotgan bu davrda o'quvchilarning axborotlardan to'g'ri foydalanishi, zarur kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi PF-5653-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot - kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida "gi PQ 4354-son Qarori tezkorlik bilan rivojlanayotgan davrdagi o'quvchilar uchun zamonaviy

<sup>3</sup> Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. I т. – Тошкент: Фан, 1968. – 40–41-б.

axborot kompetentligini rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda. Jamiyat axborot muhitining va mehnat bozorining jadal rivojlanishi natijasida eski ta’lim tizimi davr talabiga mos kelmay qoldi. Ma’lumotlarning keskin ko‘payib borayotganligi sababli bu ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlar ham ortib bormoqda. Mutaxassislarining fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning nazariy, ijodiy, refleksiv va intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda undan samarali foydalanishni o‘rgatadi. Bu esa o‘z o‘rnida pedagogning kasbiy kompetentligini oshiradi. Ushbu kompetensiv holat o‘qituvchi - muallimlarning shaxsiy sifatlariga xos. O‘quvchida shaxsiy kompetensiyani aynan o‘qituvchi yaratadi. O‘quv mashg‘ulotlari davomida pedagogik jarayon o‘z navbatida, o‘qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, takomillashtirishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni to‘g‘ri va asosli qidirib ularni tahlil qilishi o‘quvchilarni fikrlashga va muammoli vaziyatlardan chiqishga asosiysi xulosa qilishga o‘rgatadi. Bu sohada qilinadigan ishlardan biri o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish, adabiy materiallardan foydalanish, tanqidiy fikrlashga, mulohaza qilishga o‘rgatishdir.

Xulosa qilib aytganda, axborotlar bilan ishlash o‘quvchilarning ongini rivojlantiradi, adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish uning fikrlash doirasini, dunyoqarashini kuchaytiradi. Har bir mavzuga o‘z fikri bilan yondashishni o‘rgatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февридаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги РФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

2. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. I т. - Тошкент: Фан, 1968. - 40-41-б.

3. Kambarova S. Loyihalashtirish - tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish omili sifatida // Til va adabiyot ta’limi. - Тошкент, 2011. - № 2. - Б. 135

4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: “Kafolat print company” нашриёти, 2021. - 403-б.

5. Попова Е.И. Проектно-исследовательская деятельность по русскому языку и литературе как средство формирования культуроведческой компетенции учащихся // Всероссийский дистанционный конкурс для работников образования на лучшую статью «Современные технологии в работе педагога».

[https://xn--j1ahfl.xn--p1ai/library/proektnoissledovatel'skaya\\_deyatelnost\\_po\\_russkom\\_081718.html](https://xn--j1ahfl.xn--p1ai/library/proektnoissledovatel'skaya_deyatelnost_po_russkom_081718.html)

6. Зухриддинов М. Дарсдан ташқари машғулотларда тарихий ўлкашунослик материаллари воситасида ўқувчиларни ижодкорлик фаолиятига

йўналтириш // Халқ таълими. - Тошкент, 2011. - № 2. - Б. 135

7. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.

8. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

9. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.

10. Xalimjanovna, A. M. (2022). MANIFESTATIONS OF STRESS IN PROFESSIONAL ACTIVITY AND WAYS TO ELIMINATE IT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 841-844.

11. АСРАНБАЕВА, М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45